

**SUV FONDINI ASRASH YOXUD SUVNI TOMCHILATIB SUG'ORISH
TIZIMINING TARIXAN AHAMIYATI VA HUQUQIY KAFOLATLARI**

Inomjonov Zaxiriddin Zafarjon o'g'li

AndQXAI, "Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm" kafedrasi assistenti

inomjonovzaxiriddin@gmail.com

Sattorov Mashrabjon Akramjon o'g'li

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

sattorovmashrabjon@gmail.com

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

sanjarisomiddinov147@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada suv fondini asrashda tomchilatib sug'orish tizimining ahamiyati, vujudga kelish tarixi hamda bugungi kundagi huquqiy kafolatlari haqida, shuningdek, uni yurtimiz bo'ylab keng yo'lga qo'yish, ushbu texnologiyalarni joriy qilgan va qilmoqchi bo'lgan shaxslarga qonunchilikda berilishi beligilangan ko'plab moddiy va amaliy ko'maklar, imtiyozlar haqida gap boradi. Shu bilan birgalikda, maqolada soha rivoji va kelajagi uchun mualliflar tomonidan bildirilgan bir qator xulosa va takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: davlat, huquqiy madaniyat, ichimlik suvlari, pragmatik, qonun, rag'batlantiruvchi sanksiya, subsidiya, suv fondi, tomchilatib sug'orish, yer osti suvlar, yer usti suvlar.

Abstract: In the article, the importance of the drip irrigation system in preserving the water fund, the history of its creation, and its legal guarantees today, as well as its wide implementation throughout our country, and the provision of legal rights to those who have implemented and want to implement these technologies. Many material and practical aids and benefits are mentioned. Along with this, the article also presents a number of conclusions and suggestions made by the authors for the development and future of the field.

Key words: state, legal culture, drinking water, pragmatic, law, incentive sanction, subsidy, water fund, drip irrigation, underground water, surface water.

Qishloq xo'jaligi resurslaridan biri bu – suv. Suv obi - hayot demakdir. Suv hayotimizning, o'simlik va hayvonot dunyosining ajralmas qismi hisoblanadi. Suvga nisbatan huquq tarmog'i nimaga kerak degan savol tug'ilishi mumkin. Jamiyatda har bir tarmoq himoyaga olingan, huquq asosida ayrim tartiblar o'rnatiladi. Hozirgi davrda suv tanqisligi yuz berishini boshlamoqda va bunda aynan huquq kerak bo'ladi.

Masalan, suv huquqi munosabati – suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar kiradi. Huquq davlat tomonidan o'rnatiladi. Albatta, suv kadastr tashkilotining borligi va faoliyat yuritayotganligi huquq borligini anglatadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Suvni boshqarish huquqiga ega davlatning bir nechta tashkilotlari bor. Ular maxsus ruxsatnoma asosida faoliyat yuritadi. O'zimiz ham ichimlik suvidan foydalanganimiz uchun tegishli tartibda soliq to'laymiz. Bu jarayonda ham huquq ishtirok etyapdi. Biz qancha miqdor pul to'lashimiz, qachon to'lashimiz, suvdan qanday tarzda foydalanishimiz, bularning barchasi huquq hisoblanadi. Suvning ifloslantirmaslik, atrof – muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz kerak bo'lgan majburiyatlar bor. Bularning barchasida huquq ishtirok etadi.

Hozirgi davrda suv tanqisligi yuz berayotganligi ayrim davlatlarni sarosimaga solmoqda. Xususan, bizning yurtimizda ham suv bilan bog'liq muammolar yo'q emas, albatta. U muammo hammamizga ma'lum bo'lgan Orol fojiasi. Suvning kamayishi natijasida va sug'oriladigan yerlarning ko'payishi natijasida Orolga suv yildan yilga kam quyila boshlandi va natijada Orol quridi. Tarix kitoblarda yozilishicha Orol qurishi natijasida o'sha yerda istiqomat qiluvchi fuqarolar o'z mashg'ulotlaridan, ya'ni tirikchilik manbai bo'lgan baliqchilik kabi kasb-u koridan ayrildi, ayrim yuqimli kasalliklar ko'paydi. Orolni tiklash uchun butun dunyo jalb qilindi. Prezidentimiz BMT Bosh assambleyasida nutq so'zlaganda, albatta, dunyo hamjamiyatini e'tiborini Orol fojiasiga qaratishga chorlamoqda. Orol fojiasi global muommoga aylandi. Hozirda nafaqat sug'orish uchun suv kamayishi, balki ichimlik suvining kamayishi ham kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 4.3 mln gektarga yaqin sug'oriladigan yer maydoni mavjud va aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojining 60 foizi(%) yerosti suvlaridan qondiriladi[1]. Yerlarni sug'orishda suvni tejash va yer unumdorligini ushlab qolish, oshirish uchun tomchilatib sug'orish tizimi qo'llanila boshlandi. Tomchilatib sug'orish usuliga nazar salsak, u dastlab Afg'oniston olimlari tomonidan 1866-yil ekish maydonlarini sug'orish uchun loy quvurlaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Birinchi usullardan biri suv bilan to'ldirilgan loydan idishlarni dalalarga ko'mishgan edi, suv asta-sekin o'simliklarning ildiz zonasiga qarab tuproqqa singib ketadi. Shuning natijasida tomchilatib sug'orish usuli vujudga keladi. Bu jarayon yillar davomida shakllanib texnika darajasiga yetadi. Tomchilatib sug'orish tizimidan foydalanish 1980-yildan keyin ayniqsa kuchaygan va 2000-yilga kelib, dunyo miqyosida tomchilatib sug'orish tizimlari joriy qilingan ekin maydonlari 3.2 mln gektardan ortib ketdi. Tomchilatib sug'orish natijasida fermerlar ko'p hollarda hosildorlikni sezilarli darajada oshirish va shu bilan birga suvdan foydalanishni 25-50 foizga kamaytirishni aniqladilar. O'zbekiston sharoitida tomchilatib sug'orish tizimlari

asosan 1975-yildan boshlab tajriba tariqasida bog' va uzumzorlarda tadbqiq qilina boshlagan. 1998-yildan boshlab paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilab sug'orish usuli yo'lga qo'yilgan[2]. Shu tariqa tomchilatib sug'orish tizimi keng yoyilmoqda. Suvdan foydalanish xalqaro institutining o'tkazgan tadqiqoti natijalariga ko'ra 2025-yilga qadar suvga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojning 50 %i qishloq xo'jaligida sug'orish maqsadlari uchun zamonaviy texnologiyani qo'llash orqali qoplanish mumkin ekan. Samarali texnologiyalarni qo'llashga tomchilab sug'orish usuli, sug'orish shakllarining qoplanishi, sepuvchi vositalarni mukammallashtirish, shunga o'xshash sug'orish va foydalanilgan suvni kompyuterda hisoblash kabilar kiradi[3]. Tomchilatib sug'orish tizimini qo'llash va rivojlantirishga oid bir nechta Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining qaror, qonun va qonunosti hujjatlari chiqqan.

Yurtboshimiz "2013-2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013-yil 19-apreldagi PQ-1958-son qaroriga imzo qo'yadi[4]. Unga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi tomchilatib sug'orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etishni samarali tashkil etish maqsadida o'z qarorini qabul qiladi. Ushbu qarorga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va hududlarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha ichki guruhlar shakllantiriladi. Davlatimiz tomonidan tomchilatib sug'orish texnologiyasini yo'lga qo'ygan fermer xo'jaliklariga imtiyozlar, subsidiyalar berildi. Bu to'g'risida qarorlar imzolandi. Prezidentimizning 2020-yil 11-dekabrdagi PQ-4919-sonli qarorida keltirilishicha, so'nggi 2 yilda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi natijasida 2020-yilning o'zida qo'shimcha 133 ming gektar maydonga suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi. 2021-yilda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun talab qilinadigan 1.5 trln so'm subsidiya mablag'lari va 330 mlrd so'mini Moliya vaziri davlat budjetidan ajratishi to'g'risida qaror chiqardi[5]. Shuningdek, 2022-yil 1-martda «Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-144-son qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, 2022-yilda 478 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirilishi to'g'risida masala keltirib o'tildi. Qaror asosida bir nechta rejalar tashkil etildi. Har bir ekinning turiga qarab texnologiyalar joriy etish ko'zda tutildi. Shunga ko'ra, 2022 yil yakunigacha respublika bo'yicha kamida:

- 230 ming gektar, shu jumladan, 160 ming gektar paxta yetishtiriladigan maydonlarda tomchilatib sug'orish;

- 28 ming gektar, shu jumladan, 25 ming gektar boshqoqli don yetishtiriladigan maydonlarda yomg'irli sug'orish;

- 2 ming gektar qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida diskretli sug'orish tizimlari joriy qilinadi;

- 218 ming gektar ekin maydonlari lazerli uskuna yordamida tekislanadi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, texnologiya joriy qilishda davlat ko'makchiga aylandi va ayrim imtiyozlar berdi. Qarorga muvofiq, 2022-yildan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun, jumladan, tomchilatib sug'oriladigan ekin maydonining har bir gektariga quyidagi miqdorda subsidiyalar beriladi;

- **paxta maydonlari uchun — 8 mln so'm** (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi paxta maydonlarida joriy etilgan tomchilatib sug'orish tizimlari uchun **12 mln so'm**);

- sabzavot ekinlari va kartoshka ekin maydonlari uchun — 1,5 mln so'm;

- poliz ekinlari maydonlari uchun — 1,3 mln so'm;

- ozuqabop, moyli, dukkakli ekinlar va dorivor o'simliklar uchun — 2,5 mln so'm;

- mevali ekinlar uchun — 6 mln so'm;

- uzum maydonlari uchun — 8 mln so'm.[6]

Subsiyalar berilishi ham reja asosida tashkillashtirildi birdaniga hamma summa berilmadi. Prezidentimizning 2022-yil 1-martdagi PQ-144-sonli qarorida subsidiya berish masalasi ham keltirilgan. Unga ko'ra, subsidiya mablag'lari, hisob-kitob qilingan summaning:

- 50 foizi tizim joriy qilingan yili ajratiladi;

- 50 foizi kelgusi yili hosildorlik oshishi va uskunalarining ishlatilishiga qarab ajratiladi;

- qo'shimcha 20 foizi uchinchi yilda joriy qilingan tizimni ishlatgan holda yuqori hosildorlikni saqlab qolgan paxta, g'alla va meva-sabzavot klasterlariga to'lab beriladi.

Subsiya mablag'lari joriy qilingan suvni tejaydigan sug'orish tizimlari kamida 5 yil ishlatilishi sharti bilan ajratiladi. Suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan yer maydonlari kamida 5 yil mobaynida maqbullashtirilmaydi, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishiga yerdan foydalanuvchi roziligi asosida sarf etilgan mablag'larning o'rni to'liq qoplanganidan so'ngina ruxsat etiladi. Yildan yilga suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilish uchun davlat budjetidan mablag'lar ajratildi. 2022 yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun **respublika budjetidan 1 trln 182,4 mlrd so'm mablag' ajratildi** [7]. PQ144-sonli qarorga ko'ra, «Tomchi-reestr» pudrat korxonalarining yagona elektron reyestri ishlab chiqiladi. 2022-yil 10-martgacha suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab

chiqaruvchilarga subsidiyalar berish yuzasidan tegishli materiallarni to'plash, ko'rib chiqish hamda vakolatli organ va tashkilotlar bilan kelishishning «Agro-subsidiya» yagona axborot tizimi joriy qilinadi[6]. Shuni bilish lozimki, 2021-yil 23-fevralda suv tejavchi texnologiyadan foydalangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga subsidiyalar berilishi ma'lum qilingandi. Biroq, besh yilgacha bo'lgan muddatda texnologiya ishlatilmasa, yillar kesimida subsidiyaning 100 foizidan 20 foizgacha miqdori qaytarib olinadi. Chunki davlat budjetidan texnologiyalar joriy qilish uchun ajratilgan pulni boshqa maqsadda yo'naltirish ham qonuniy jihatdan ham mantiqan to'g'ri kelmaydi. Texnologiyadan foydalanmaslik holati haqida video tasvirlarni yuborgan shaxslar rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yillar davomida yangi qonunchilik tizimi ishlab chiqilib, yo'lga qo'yilmoqda. Shuning pirovardida qishloq xo'jaligiga oid qarorlar chiqarilmoqda, ularni hayotga tadbiiq etish va amaliyotda qo'llash ishlari olib borilyapdi. Hozirda jahon hamjamiyati suvni tanqisligi bo'lishiga ham e'tibor qaratmoqda va bu jarayon ayrim davlatlarni ham o'ylantirmoqda. Tomchilatib sug'orish texnologiyasi natijasida ham suvni tejab qolish ham yerning meliorativ holatini o'zida saqlab qolishi mumkinligi namoyon bo'ldi.

Takliflarim shuki, bugungi suv bilan bog'liq muammolarni chuqur o'rganib chiqish va uning oldini olish uchun eng avvalo jahon hamjamiyati bilan integratsiyani yo'lga qo'ygan holda, xorijiy davlatlardan ham olim-professorlarni jalb qilib, maxsus ishchi guruhlar, professional faoliyat olib boruvchi komissiyalar tuzish, ularni moddiy, ijtimoiy-huquqiy tomondan qo'llab-quvvatlab samarador faoliyat olib borishlariga shart-sharoitlar yaratib berish, hamda ular tomonidan puxta o'rganib chiqilib, keng va uzoq muhokamalardan so'ng ishlab chiqilgan loyiha va dasturlarni, suv resurslarini tejash va yo'qolib borayotgan suv fondini tiklashga doir barcha intensiv usullarni, texnika-texnologiyalarni, tomchilatib sug'orish bilan bog'liq innovatsiyalarni keng yo'lga qo'yish va ularning natijadorligini tekshirib borish, shuningdek, suv va suvdan foydalanish huquqini muhofaza qilishga oid qonunchilikka pragmatik va strategik o'zgarishlarni yanada ko'proq kiritish va ularning amalda ijrosini ta'minlash, suvdan foydalanishda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini qo'llagan insofli iste'molchilarga imtiyozlarni, ya'ni rag'batlantiruvchi sanksiyalarni, shuningdek, aksincha suvdan noo'rin maqsadlarda, isrofgarchilik bilan va suvga zararli ta'sirlar ko'rsatgan holda foydalangan insofsiz "iste'molchilarga" ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik choralarini oshirish, suvni tejash hamda unda oqilona foydalanish bo'yicha muntazam "Suv-hayot manbai", "Suvni asrang" mavzulari ostida aholi orasida aksiyalar, tadbirlar olib borish va ularning suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish hamda shu kabi tadbirlarda faol ishitirok etgan, suvni tejash va asrash, uning muhofazasida jonbozlik ko'rsatgan shaxslarga "Eng faol targ'ibotchi", "Ekologiya xaloskori" va "Suv qo'riqchisi" nomli davlat mukofotlarini joriy etish

singari islohotlarni amalga oshirish lozim. Zero, suv bilan bog‘liq muammolar, toki biz u bilan kurashish choralarini izlagunimizcha bizni “kutib o‘tirmaydi”. Biz joriy muammolarga yechim topganimizda, yana yangilari vujudga kelgan bo‘ladi. Shunday ekan, suv bilan bog‘liq muammo umumbashariyat muammosi hisoblanmog‘i va uni asrash har bir kurrayi zaminda yashovchi insonlarning burchi bo‘lmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://m.kun.uz/uz/news/2021/02/09/ozbekistonda-sugoriladigan-yerlarning-447-foizi-shorlangani-malum-qilindi>
2. S.A. Mamatov. Tomchilatib sug‘orish tizimi. -Toshkent. 2016: -22 b.
3. R.T. Gaziyeva, A.M. Usmanov, E.O. Ozodov. Sug‘orish tizimlarini avtomatlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi. -Toshkent. 2017, -47 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2013 — 2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2013-yil 19-apreldagi PQ-1958-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 11-dekabrdagi PQ-4919-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 1-martdagi PQ-144-son qarori.
7. M.X. Xamidov, I.A. Begmatov, S.X. Isayev, S.A. Mamatov. Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari, Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: TIMI, 2014: -135 b.